

+998 555 100 300
WWW.UZSE.UZ

100170, O'ZBEKISTON, TOSHKENT,
MUSTAQILLIK 107



PRESS - RELIZ

**MAY
2026**




MUNDARIJA

SAVDO YAKUNLARI	3
BIRJA SAVDOLARI	5
Birja savdolari sharhi	6
Birja bozorlari va maydonchalari sharhi	7
“UzNIF” AJ aksiyalarining birlamchi ochiq joylashuvi (IPO)	8
Emitentlarning bozor kapitalizatsiyasi	9
UCI indeksi	9
Top-10 aksiyalar Main Board bo'yicha	10
Narxlarning o'zgarishi	11
Obligatsiyalar bozori	13
Tarmoq tuzilmasi	14
Birja kotirovkalash varag'i	15
LISTINGDAN TASHQARI SAVDO MAYDONI	17
LTSM savdolari sharhi	18
Main Board bo'yicha LTSM aksiyalar Top-10 ro'yxati	19
DISKLEYMER	21

SAVDO YAKUNLARI

- Oy yakunlariga ko'ra, savdolarning umumiy hajmi **1,05 trln so'mni (87,26 mln AQSH dollari)** tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2026-yilning aprel oyiga nisbatan **740,16 mlrd so'mga** yoki **41 foizga kamaygan**. Shundan **1,02 trln so'm (84,70 mln AQSH dollari)** birja kotirovkalash varag'iga kiritilgan qimmatli qog'ozlar bilan tuzilgan bitimlarga to'g'ri keldi. Savdo hajmining qolgan qismi esa tashkil etilgan birjadan tashqari bozorda (listingdan tashqari savdo maydonchasi – LTSM) amalga oshirilgan bitimlar ulushini tashkil etdi.
- Hisobot davrida tuzilgan bitimlarning umumiy soni **75 737** tani tashkil etib, 2026-yilning aprel oyiga nisbatan **14 145 taga** yoki **16 foizga kamaydi**. Jumladan, **66 430 ta bitim birja kotirovkalash** varag'iga kiritilgan qimmatli qog'ozlar bilan, **9 307 ta bitim** esa tashkil etilgan birjadan tashqari bozorda tuzildi.
- Savdolarning o'rtacha kunlik hajmi **61,82 mlrd so'mni (5,13 mln AQSH dollari)**, o'rtacha kunlik bitimlar soni esa **4 455** tani tashkil etdi.
- Savdolarda jami **54,58 mlrd dona** qimmatli qog'ozlar ishtirok etdi. Shundan **53,72 mlrd donasi** listing maydonchalarida muomalaga chiqarilgan qimmatli qog'ozlarga to'g'ri keldi.
- Savdolarda **194** ta emitentning qimmatli qog'ozlari ishtirok etdi.
- Hisobot davrida savdolar **230** ta moliyaviy instrument bo'yicha amalga oshirildi.
- Hisobot davrida savdolar **17** ta savdo kuni davomida o'tkazildi.

2026-YIL MAY OYIDAGI BITIMLAR SONI VA HAJMI (MLRD SO‘M)



MAY
2026



TOSHKENT
RESPUBLIKA FOND BIRJASI

BIRJA SAVDOLARI

BIRJA SAVDOLARI SHARHI

Oy davomida “Toshkent” RFB birja kotirovkalash varag’iga kiritilgan 69 ta emitentning 53,72 mlrd dona qimmatli qog’ozi bilan, IPO bitimlari ham inobatga olingan holda, umumiy qiymati 1,02 trln so’mni (84,70 mln AQSH dollari) tashkil etgan 66 430 ta bitim tuzildi.


Eng yuqori savdolar hajmi 22-may kuni qayd etilib, 365,48 mlrd so’mga yetdi. Bu ko’rsatkich oy davomida amalga oshirilgan jami savdolar qiymatining 35,82 foiziga teng bo’ldi. Shu kuni eng yirik bitimlar “UZUM SARMOYA” MCHJning /UZUMS3B/ obligatsiyalari bilan tuzilib, ularning umumiy qiymati 358,46 mlrd so’mni tashkil qildi.

Mazkur ko’rsatkich 22-may kungi jami savdolar hajmining 98,08 foizini tashkil etdi. Eng past ko’rsatkich esa 8-may kuni qayd etilib, shu kuni umumiy qiymati 428,70 mln so’mlik 2 509 ta bitim tuzildi. May oyida birja kotirovkalash varag’idagi qimmatli qog’ozlar bilan tuzilgan bitimlarning o’rtacha kunlik soni 3 908 tani, savdolarning o’rtacha kunlik hajmi esa 60,01 mlrd so’mni tashkil etdi.

Aprel oyiga nisbatan bitimlar soni 10,81 foizga kamaydi, savdolar hajmi esa 236,09 foizga oshdi.

MAY OYIDAGI SAVDOLAR HAJMI VA BITIMLAR SONI

Milliardlarda



BIRJA BOZORLARI VA MAYDONCHALARI SHARHI

Hisobot davrida eng yuqori savdo faolligi “Bond Market” savdo maydonchasida kuzatildi. Mazkur maydonchada 8 ta emitent ishtirokida jami 1 422 ta bitim tuzildi. Savdolarning umumiy hajmi 670,96 mlrd so‘mni tashkil etdi.

Nº	Savdo tizimi bo‘limlari	Emitentlar soni	Bitimlar soni	Qimmatli qog‘ozlar soni	Bitimlar hajmi (so‘m)
I.	«Stock Market»:	60	60 084	29 682 528 398	243 266 598 229,83
1.	«Main Board»	58		4 417 576 596	23 670 831 990,61
2.	«Nego Board»	5	26	25 264 951 802	219 595 766 239,22
3.	«Bond Market»	8	1 422	1 639 619	670 962 708 603,23
II.	«Main Board»	8	1 406	872 273	593 262 509 138,07
1.	«Nego Board»	1	16	767 346	77 700 199 465,16
III.	REPO bozori	1	2	3	1 999 999,99
1.	«Repo Nego Board»	1	2	3	1 999 999,99
IV.	IPO	1	4 922	24 038 925 419	106 011 661 097,79
JAMI		69	66 430	53 723 093 439	1 020 242 967 931

“Bond Market” segmentida operatsiyalarning asosiy qismi “Main Board” maydonchasida amalga oshirilib, unda 8 ta emitent ishtirokida 1 406 ta bitim qayd etildi. Mazkur maydonchadagi savdolar hajmi 593,26 mlrd so‘mni tashkil etib, obligatsiyalar bozori umumiy savdo hajmining 88,42 foiziga teng bo‘ldi.

AKSIYALAR BOZORI ASOSIY KO'RSATKICHLARI

		2022	2023	2024	2025	2026
Savdolar hajmi	mln so'm	28 157	188 550	8 623	657 852	243 267
O'rtacha kunlik savdo hajmi	mln so'm	1 564	8 570	392	31 326	14 310
Bitta bitim o'rtacha hajmi	mln so'm	5	5	1	36	4
Bitimlar soni	dona	5 990	35 804	38 032	18 175	60 084
O'rtacha kunlik bitimlar soni	dona	333	1 627	1 729	865	3 534

“UZNIF” AJ AKSIYALARINING BIRLAMCHI OCHIQ JOYLASHUVI (IPO)

Hisobot davrida “Uznif” AJ aksiyalarining birlamchi ochiq joylashuvi (IPO) muvaffaqiyatli yakunlandi va mazkur IPO milliy kapital bozori tarixidagi eng yirik joylashuvlardan biriga aylandi.

IPOda ishtirok etish uchun arizalar qabul qilish 2026-yil 30-aprelda boshlandi. IPO yakunlariga ko'ra, “Toshkent” RFBda 47,94 mlrd ta aksiya joylashtirildi hamda umumiy qiymati 214,61 mlrd so'mni (17,78 mln AQSH dollari) tashkil etgan 4 943 ta bitim tuzildi.

“Toshkent” RFBda Uznif aksiyalari bilan ikkilamchi savdolar UZNF tikeri ostida 2026-yil 18-mayda boshlandi. 18-maydan 31-mayga qadar “Stock Market” bozorining Main Board maydonchasida umumiy qiymati 12,18 mlrd so'm bo'lgan 12 303 ta bitim tuzildi.

Hisobot davrida aksiyalar bo'yicha savdolar 5,07–7,50 so'm narx diapazonida amalga oshirildi.

EMITENTLARNING BOZOR KAPITALIZATSIYASI


Hisobot davri yakunlariga ko'ra, aksiyalarning bozor kapitalizatsiyasi 65,39 trln so'mga yoki 19,08 foizga ko'payib, 408,08 trln so'mni (34,01 mlrd AQSH dollari) tashkil etdi.

Erkin muomaladagi aksiyalarning kapitalizatsiyasi (free-float) esa 6,88 trln so'm (573,10 mln AQSH dollari) darajasida shakllandi.

UCI INDEKSI

Oy yakunlariga ko'ra, UCI indeksi 10,68 foizga oshib, 985,68 punkt darajasida yopildi. Indeksning eng yuqori darajasi 14-may kuni qayd etilib, 1 009,75 punktga yetdi. Eng past daraja esa 7-may kuni kuzatilib, 889,23 punktni tashkil etdi.


2026-YIL MAY OYIDAGI UCI INDEKSI GRAFIGI



TOP-10 AKSIYALAR MAIN BOARD BO‘YICHA

2026-yil may oyi yakunlariga ko‘ra, aksiyalar bozorining asosiy maydonchasi — G1 “Main Board”da jami 23,67 mlrd so‘mlik 60 058 ta bitim tuzildi.

BITIMLAR SONI BO‘YICHA TOP-10



Hisobot davrida eng ko‘p bitimlar “UzNIF” AJning /UZNF/ hamda “Chilonzor buyum savdo kompleksi” AJning /CBSK/ aksiyalari bilan tuzildi. Mazkur qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha mos ravishda 12 303 va 3 279 ta bitim qayd etildi. Top-10 ro‘yxatining quyi pog‘onalaridan esa AJ “Qizilqumsement”ning /QZSM/ va “Aloqabank” ATBning /ALKB/ oddiy aksiyalari o‘rin oldi. Ushbu aksiyalar bilan mos ravishda 2 048 va 1 933 ta bitim tuzildi.

SAVDOLAR HAJMI BO‘YICHA TOP-10, MLN SO‘M



Eng yuqori savdo hajmi AJ “UzNIF”ning /UZNF/ va ATB «Hamkorbank»ning /HMKB/ aksiyalari bilan qayd etildi. Mazkur qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha savdolar hajmi mos ravishda 12 178,37 mln so‘m va 2 794,91 mln so‘mni tashkil etdi. Top-10 ro‘yxatining quyi pog‘onalarida AJ “O‘zbektelekom”ning /UZTLP/ va AJ “Qizilqumsement”ning /QZSM/ aksiyalari joy oldi. Ular bo‘yicha savdolar hajmi mos ravishda 318,53 mln so‘m va 318,21 mln so‘mni tashkil etdi. Shu bilan birga, “Main Board” savdo maydonchasida Top-10 emitent qimmatli qog‘ozlari bilan tuzilgan bitimlarning umumiy hajmi 21 392,31 mln so‘mni tashkil etib, aksiyalar bozori umumiy savdo hajmining 90,37 foiziga teng bo‘ldi.

NARXLARNING O'ZGARISHI

Oy davomida aksiyalar narxlarining o'zgarishi –28,57 foizdan 48,59 foizgacha bo'lgan oraliqda shakllandi.

Eng yuqori ijobiy dinamika "Toshkentdonmahsulotlari" AJning /TKDMP/ imtiyozli aksiyalari hamda "Tashgiprogor" AJning /TGPG/ oddiy aksiyalarida kuzatildi. Natijada ularning bozor narxi mos ravishda 5 199,99 so'm va 72 000,00 so'mga yetdi.

Tiker	Emitent	Yopilish narxi 30.04.2026	Yopilish narxi 31.05.2026	O'zgarish %
TKDMP	AJ «Toshkentdonmahsulotlari»	3 499,55	5 199,99	48,59%
TGPG	AJ «Tashgiprogor»	50 000,00	72 000,00	44,00%
UTGA	AJ «O'ztransgaz»	116 001,00	160 000,00	37,93%
OCBK	AJ «OCTOBANK»	37 100,00	47 000,00	26,68%
KASUP	AJ «Kapital sug'urta»	0,15	0,19	26,67%
UQEQ	AJ «O'zqishloqelektrqurilish»	28 000,00	35 000,00	25,00%
BECM	AJ «Bekobodsement»	10 920,00	13 600,00	24,54%
UZAS	AJ «O'zagrosug'urta»	18 500,00	23 000,00	24,32%
KSCM	AJ «Quvasoycement»	105 500,02	130 000,00	23,22%
GRBK	AJ «GARANT BANK»	650	800	23,08%

Shu bilan birga, “Maxsuselektrtarmoqqurilish” AJning /METQ/ va “O‘zbekiston pochtasi” AJning /UPOSR/ aksiyalari eng katta pasayishni qayd etdi. Hisobot davri yakunida ularning bozor narxi mos ravishda 20 000,00 so‘m va 50 000,00 so‘m darajasida shakllandi.

Tiker	Emitent	Yopilish narxi 30.04.2026	Yopilish narxi 31.05.2026	O‘zgarish %
METQ	AJ «Maxsuselektrtarmoqqurilish»	28 000,00	20 000,00	-28,57%
UPOSR	AJ «O‘zbekiston pochtasi»	69 100,00	50 000,00	-27,64%
SANE	AJ «Sarbon neftegaz»	13 000,00	10 037,00	-22,79%
KSCMP	AJ «Quvasoycement»	132 000,00	105 600,00	-20,00%
KVTS	AJ «Kvarts»	3 119,55	2 503,01	-19,76%
YRFS	AJ «Yo‘lreftrans»	4 560,00	3 800,00	-16,67%
UZTLP	AJ «O‘zbektelekom»	4 743,00	4 100,00	-13,56%
UZMK	AJ «O‘zmetkombinat»	6 600,00	5 895,00	-10,68%
IPTBP	ATIB «Ipoteka-bank»	11,09	9,96	-10,19%
TRSB	XAB «Trastbank»	9 844,05	8 900,00	-9,59%

OBLIGATSIYALAR BOZORI

Hisobot davri yakunlariga ko'ra, "Bond Market" savdo maydonchasida umumiy qiymati 670,96 mlrd so'm bo'lgan 1 422 ta bitim tuzildi.


Eng yuqori savdo hajmi 22-may kuni qayd etilib, 359,89 mlrd so'mni tashkil etdi. Shu kuni obligatsiyalar bozorining "Main Board" maydonchasida "UZUM SARMOYA" MCHJning /UZUMS3B/ obligatsiyalari bilan umumiy qiymati 358,46 mlrd so'm bo'lgan 1 ta bitim tuzildi. Mazkur bitim obligatsiyalar bozori bo'yicha hisobot davridagi jami savdo hajmining 53,43 foizini tashkil qildi.

"Nego Board" maydonchasida esa umumiy qiymati 77,70 mlrd so'm bo'lgan 16 ta bitim tuzildi.

Obligatsiyalarning bozor qiymati 147,90 mlrd so'mga yoki 3,22 foizga oshib, 4,75 trln so'mni (395,54 mln AQSH dollari) tashkil etdi.

Muomaladagi instrumentlar soni 32 taga yetdi. May oyida "ANOR BANK" MCHJning /ANBK3B/ va "AGAT CREDIT" AJ MFOning /ACMT2B5/ obligatsiyalari birja kotirovkalash varag'iga kiritildi.

INSTRUMENTLAR BO'YICHA OBLIGATSIYALAR BILAN SAVDOLAR HAJMINING ULUSHI, %




OBLIGATSIYALAR BOZORINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

		2022	2023	2024	2025	2026
Savdolar hajmi	mln so'm	0	2 761	51 052	69 054	670 963
O'rtacha kunlik savdo hajmi	mln so'm	0	126	2 321	3 288	39 468
Bitta bitim o'rtacha hajmi	mln so'm	0	89	132	70	472
Bitimlar soni	dona	0	31	388	983	1 422
O'rtacha kunlik bitimlar soni	dona	0	1	18	47	84

TARMOQ TUZILMASI

Oy davomida "Toshkent" RFBda iqtisodiyotning 14 ta tarmog'iga mansub emitentlarning birja kotirovkalash varag'iga kiritilgan qimmatli qog'ozlari bilan bitimlar tuzildi.

2026-YIL MAY OYIDA TARMOQLAR KESIMIDA BITIMLAR HAJMI, %



■ Moliyaviy xizmatlar 87,91%	■ Boshqa 7,83%	■ Sanoat 1,87%	■ Banklar 1,81%
■ Transport 0,33%	■ Aloqa 0,17%	■ Sug'urta 0,02%	■ Tijorat ko'chmas mulki 0,02%
■ Energetika 0,01%	■ Mashinasozlik 0,01%	■ Agrosanoat majmui 0,00%	■ Farmatsevtika 0,00%
■ Qurilish 0,00%	■ Lizing 0,00%		


Bitimlarning eng katta hajmi “Moliyaviy xizmatlar” tarmog‘ida qayd etilib, ushbu sektorda umumiy qiymati 896,95 mlrd so‘m bo‘lgan 18 666 ta bitim tuzildi. Mazkur ko‘rsatkich jami savdo hajmining 87,91 foizini tashkil etdi.

Keyingi o‘rinlarni “Boshqalar” sektori — 7,83 foiz (79,85 mlrd so‘m) hamda sanoat tarmog‘i — 1,87 foiz (19,12 mlrd so‘m) egalladi. Ushbu uch tarmoq hissasiga bozor umumiy savdo hajmining 97 foizdan ortig‘i to‘g‘ri keldi.

Eng ko‘p bitimlar “Banklar” tarmog‘i qimmatli qog‘ozlari bilan tuzilib, ularning soni 19 681 taga yetdi. Keyingi o‘rinlarni “Moliyaviy xizmatlar” (18 666 ta bitim) va “Sug‘urta” (6 217 ta bitim) tarmoqlari egalladi.

Eng past savdo faolligi “Qurilish” va “Lizing” tarmoqlari qimmatli qog‘ozlarida kuzatildi. Mazkur tarmoqlar bo‘yicha bitimlar soni mos ravishda 95 ta va 46 tani tashkil etdi.


2026-YIL MAY OYIDA TARMOQLAR KESIMIDA BITIMLAR SONI, DONA



BIRJA KOTIROVKALASH VARAG‘I

Oy oxiridagi holatga ko‘ra, “Toshkent” RFB birja kotirovkalash varag‘ida 97 ta emitentning 153 ta instrumenti mavjud bo‘ldi.

KATEGORIYALAR KESIMIDAGI INSTRUMENTLAR



Shundan:

- 84 — oddiy aksiyalar;
- 37 — imtiyozli aksiyalar;
- 32 — obligatsiyalar.

Hisobot davrida birja kotirovkalash varag'iga "ANOR BANK" MCHJning /ANBK3B/ va "AGAT CREDIT" AJ MFOning /ACMT2B5/ obligatsiyalari kiritildi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Milliy investitsiya fondi AJning /UZNF/ hamda "REGAL STAY GRAND" AJning /RLSG/ obligatsiyalari mos ravishda "Premium" va "Tranzit" toifalariga o'tkazildi. Bundan tashqari, "Bag'doddonmahsulotlari" AJning oddiy /BDDM/ va imtiyozli /BDDMP/ aksiyalari ixtiyoriy delisting natijasida birja kotirovkalash varag'idan chiqarildi.

"Stock Market" aksiyalar bozorida bitimlarning eng katta soni "Standart" segmentida qayd etilib, unda 39 901 ta bitim tuzildi. Ularning umumiy hajmi 22,41 mlrd so'mni tashkil etdi. Eng past savdo faolligi "Tranzit" segmentida kuzatilib, ushbu segmentda 2 231 ta bitim tuzildi. Savdolar hajmi 20,82 mlrd so'mga yetdi. Eng yuqori savdo hajmi esa "Premium" segmentida qayd etilib, 229,03 mlrd so'mni tashkil qildi. Ushbu segmentda 20 045 ta bitim tuzildi. "Xususiylashtirish" segmentida esa jami 2 829 ta bitim tuzilib, ularning umumiy hajmi 77,01 mlrd so'mni tashkil etdi.

LISTINGDAN TASHQARI SAVDO MAYDONI



**MAY
2026**

LTSM SAVDOLARI SHARHI

Savdolar hajmi 30,67 mlrd so'mni (2,56 mln AQSH dollari) tashkil etib, o'tgan oyga nisbatan 1,46 trln so'mga kamaydi. Savdolarning asosiy qismi "SME Stock" bozorining "FoP Board" platformasiga to'g'ri kelib, ushbu segmentdagi bitimlar hajmi 20,00 mlrd so'mga yetdi va may oyidagi jami savdolar hajmining 65,21 foizini ta'minladi.


Eng yuqori ko'rsatkich 18-may kuni qayd etilib, 20,04 mlrd so'mni (1,67 mln AQSH dollari) tashkil etdi. Eng past savdo hajmi esa 7-may kuni kuzatilib, 13,19 mln so'mga (1 093 AQSH dollari) teng bo'ldi.

Hisobot davrida jami 9 307 ta bitim tuzildi. Eng ko'p bitimlar 18-may kuni qayd etilib, ularning soni 865 taga yetdi. Eng kam bitimlar soni esa 20-may kuni kuzatilib, 408 tani tashkil etdi.


Aksiyalar bozoridagi savdolarning o'rtacha kunlik hajmi 1,80 mlrd so'mni (150,41 ming AQSH dollari), o'rtacha kunlik bitimlar soni esa 547 tani tashkil qildi.

LTSM BITIMLAR HAJMI, MLRD SO'M

Milliardlarda



LTSM BITIMLAR SONI




LTSM ASOSIY KO'RSATKICHLARI

N°	Savdo maydonchasi	Emitentlar soni	Bitimlar soni	Qimmatli qog'ozlar soni	Savdo hajmi (so'm)
I.	«SME Stock»:	125	9 307	854 173 256	30 670 780 909,34
1.	«Main Board»	122	9 304	264 302 130	1 313 174 909,34
2.	«Nego Board»	2	2	569 871 126	9 357 606 000,00
3.	«FoP Board»	1	1	20 000 000	20 000 000 000,00
	JAMI	125	9 307	854 173 256	30 670 780 909,34

MAIN BOARD BO'YICHA LTSM AKSIYALAR TOP-10 RO'YXATI

“SME Stock” aksiyalari bozorida tuzilgan bitimlar soni va hajmi bo'yicha G1 — “Main Board” maydonchasidagi aksiyalarning Top-10 ro'yxati.

BITIMLAR SONI BO'YICHA TOP-10



Eng ko'p bitimlar "Uzsanoateksport" AJning /OSNE/ aksiyalari bilan tuzilib, ularning soni 1 051 tani tashkil etdi. Keyingi o'rinlarni "Qo'qon mexanika zavodi" AJning /OKUM/ va "Uzparta'minot" AJning /UZPT/ aksiyalari egalladi. Mazkur qimmatli qog'ozlar bilan mos ravishda 783 va 720 ta bitim tuzildi. Top-10 ro'yxatining quyi pog'onalarida "Kafolat" AJning /OKSK/ va "Kogon yog'-ekstraksiya zavodi" AJning /OKYZ/ aksiyalari joy oldi. Ular bo'yicha mos ravishda 285 va 235 ta bitim qayd etildi.

Bitimlarning eng katta hajmi "DUNYO-M" AJning /ODNM/ oddiy aksiyalari bilan qayd etilib, 562,92 mln so'mni tashkil etdi. Mazkur ko'rsatkich ushbu segmentdagi jami savdo hajmining 42,87 foiziga teng bo'ldi. Keyingi o'rinlarni "TOSHKENTVINO KOMBINATI" AJning /OTVK/ va "Uzkimyofarm" AJning /OKFM/ aksiyalari egallab, ular bilan mos ravishda 115,13 mln so'mlik va 72,82 mln so'mlik bitimlar tuzildi.

SAVDOLAR HAJMI BO'YICHA TOP-10, MLN SO'M



Top-10 ro'yxatining quyi pog'onalarida "JIZZAX PLASTMASSA" AJning /JIPL/ aksiyalari o'rin oldi. Mazkur qimmatli qog'ozlar bilan jami 18,20 mln so'mlik bitimlar tuzildi. Savdo hajmi bo'yicha Top-10 aksiyalar bilan tuzilgan bitimlarning umumiy hajmi 1,03 mlrd so'mni tashkil etib, ushbu segment umumiy savdo hajmining 78,55 foiziga teng bo'ldi.

DISKLEYMER

Ushbu tahlilda keltirilgan ma'lumotlar "Toshkent" Respublika fond birjasi AJ (keyingi o'rinlarda "Toshkent" RFB) mutaxassislari tomonidan tayyorlangan. Ushbu tahliliy material faqat ma'lumot uchun mo'ljallangan bo'lib, "Toshkent" RFB va uning xodimlarining hech qaysi biri ushbu sharhdan yoki undagi ma'lumotlardan foydalanish natijasida kelib chiqqan bevosita yoki bilvosita yo'qotishlar (zararlar) uchun javobgar emas.

"Toshkent" RFB investorlarga muayyan investitsiyalar va strategiyalarni maqsadga muvofiqligini mustaqil baholashga chorlaydi va investorlarni litsenziyalangan investitsiya vositachilari xizmatlaridan foydalanishga undaydi.

Ushbu sharh bo'yicha barcha huquqlar "Toshkent" RFBga tegishli. Ushbu tahliliy materialni qisman yoki to'liq ko'paytirish va/yoki tarqatish faqat manbani ko'rsatgan holda amalga oshirilishi shart.

© **"TOSHKENT" RESPUBLIKA FOND BIRJASI AJ**

Birjaviy tahlil "Tahlil va statistika" bo'limi tomonidan tayyorlangan.

Fikr-mulohaza uchun kontaktlar:

E-mail: analytics@uzse.uz

Tel.: +998 555 100 300